

O'QUVCHILARDA KASB-HUNARGA NISBATAN QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Djaynakova Moxira Baxramovna

Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani 12-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarda kasb-hunarga nisbatan qiziqishni shakllantirishning psixologik usullari, bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar hamda kasbiy yo'naltirishning pedagogik-psixologik jihatlari yoritilgan. Kasb tanlash jarayoni shaxsning qobiliyati, qiziqishi va motivatsiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, to'g'ri yo'naltirish kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Maqolada diagnostika, motivatsiyani rivojlantirish va kasbiy orientatsiya usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, qiziqish, motivatsiya, kasbiy yo'naltirish, qobiliyat, psixologik usullar, o'quvchilar, individual yondashuv, mehnat tarbiyasi, kelajak.

KIRISH

Kasb-hunarga qiziqish o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon maktab yoshidan boshlanib, o'smirlik davrida yanada faollashadi. O'quvchilarning kelajakdagi kasbini to'g'ri tanlashi ularning qobiliyatlari, qiziqishlari va psixologik xususiyatlariga bog'liq. Kasbga qiziqishning shakllanishida ichki va tashqi omillar muhim rol o'ynaydi. Ichki omillarga shaxsning qobiliyati, qiziqishi, temperament va motivatsiyasi kiradi. Tashqi omillarga esa oila, maktab muhiti, o'qituvchilar ta'siri, tengdoshlar va jamiyatdagi kasblar haqidagi tasavvurlar kiradi. Kasbiy qiziqishni shakllantirishning muhim psixologik usullaridan biri kuzatish metodidir. O'qituvchi o'quvchining darsdagi faolligi, qaysi fanlarga ko'proq qiziqishi va amaliy faoliyatga munosabatini kuzatish orqali uning kasbiy yo'nalishini aniqlashi mumkin.

Suhbat metodi ham muhim o'rin tutadi. O'quvchi bilan kasblar, orzular va kelajak rejalari haqida muloqot qilish uning ichki motivatsiyasini aniqlashga yordam beradi. Psixologik testlar va diagnostik metodikalar o'quvchilarning qobiliyat va qiziqishlarini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu testlar orqali intellektual, ijodiy va amaliy qobiliyatlar baholanadi. Kasbga yo'naltirish jarayonida o'yin va amaliy faoliyatlardan foydalanish ham muhimdir. Kasbiy rolli o'yinlar, ekskursiyalar va amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarda real kasblar haqida tasavvur hosil qiladi.

Motivatsiyani rivojlantirish kasbiy qiziqishni shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. O'quvchilarning muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish, ularning qobiliyatini e'tirof etish va ijobiy baholash motivatsiyani kuchaytiradi.

Oila va maktab hamkorligi kasb tanlash jarayonida katta ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandining qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashi va uni majburlamasdan erkin tanlovga yo'naltirishi zarur. Shuningdek, kasbga yo'naltirish markazlari, to'garaklar va amaliy seminarlar o'quvchilarda kasblarga nisbatan real tasavvur hosil qilishga yordam beradi. O'quvchilarni tarbiyasiga nisbatan qo'yilayotgan eng muhim talablardan biri ularni mehnat qilish ehtiyojini tarbiyalashdan iboratdir. Mehnat qilishga bo'lgan ehtiyojning yanada rivojlanishi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlarini maksimal darajada avtomatlashtirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ish vaqtini qisqartirish natijasida, faqat ijtimoiy foydali mehnatdagina o'zini namoyon eta oladigan bunyodkorlik kuchlarini jonlantirish oqibatida yuz beradi.

Umumta'lim maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida o'quvchilarning mehnat tarbiyasi va kasbga yo'naltirilishi qanday rol o'ynashiga alohida e'tibor berilgan. Ehtiyojlar kelib chiqishiga ko'ra tabiiy va madaniy bo'lishi mumkin. Tabiiy ehtiyojlar kishining faollik kasb etayotgan faoliyati, uning hayoti va uning avlodi hayotini saqlash uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarga bo'ysunganligini ifodalaydi. Madaniy ehtiyojlarda odamning faol faoliyati insoniyat madaniyatining mahsuliga bog'liq ekanligi ifodalanadi; uning ildizlari butunlay kishilik tarixining sarhadlariga borib taqaladi. Ma'naviy jihatdan o'rinli bo'lgan ehtiyoj odam yashayotgan jamiyatning talablariga javob beradigan, ana shu jamiyatda qabul qilingan didlar, baholar va dunyoqarashga mos keladigan ehtiyojlardir. Ehtiyojlar o'z predmetining xarakteriga ko'ra moddiy va ma'naviy bo'lishi mumkin. Moddiy ehtiyojlarda kishining moddiy madaniyat predmetlariga qaramligi (ovqatlanish, kiyinish, uy-joy, maishiy turmush ashyolariga ehtiyoj va boshqalar) ifodalanadi. Ma'naviy ehtiyojlarda esa ijtimoiy ong mahsuliga tobelligi ifodalanadi. Ma'naviy ehtiyojlar ma'naviy madaniyatni yaratish va o'zgartirishda o'z aksini topadi.

O'quvchi o'z fikr-mulohazalari va tuyg'ularini boshqalar bilan baham ko'rishga, gazetalar, kitoblar va jurnallar o'qishga, kinofilmlar va spektakllar ko'rishga, musiqa tinglashga va shu kabilarga ehtiyoj sezadi. Ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlar bilan uzviy bog'liqdir. Ma'naviy ehtiyojlarni qondirish uchun moddiy ehtiyojlar predmeti hisoblanmish moddiy narsalar (kitoblar, gazetalar, yozuv va nota qog'ozlari, bo'yoqlar va shu kabilar) talab qilinishi shubhasiz. Shu tariqa, kelib chiqishiga ko'ra tabiiy, shu bilan birga predmetiga ko'ra moddiy, kelib chiqishiga ko'ra madaniy hisoblangan ehtiyoj yo moddiy bo'lishi, yo predmetiga ko'ra ma'naviy bo'lishi mumkin.

Inson kasb faolligida "harakat", "faoliyat", "xulq" tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. Shaxs aynan turli kasb faolliklar doirasida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi ham. Demak, kasb faolligi yoki inson kasb faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson kasb faolligini

mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni kasb faoliyati deb yuritiladi. Ya'ni, kasb faoliyati — inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Bu — moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu — yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati va shunga o'xshash.

Har qanday kasb faoliyati real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Qilinayotgan har bir harakat ma'lum narsaga — predmetga qaratilgani uchun ham faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, ma'ruzani konspekt qilayotgan talabani predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo'lib, u avvalo o'sha daftardagi yozuvlar soni va sifatini o'zgartirish orqali bilimlar zaxirasini boyitayotgan bo'ladi. Kasb faoliyatining va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan nimalarga yo'naltirilganligiga qarab, avvalo tashqi va ichki kasb faoliyati farqlanadi.

Tashqi kasbiy faoliyat shaxsni o'rab turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, ichki kasbiy faoliyat birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u sof kasbiy psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki aqliy, psixik kasbiy faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashqi faoliyat ro'y beradi, tajriba orttirib borilgan sari asta-sekin bu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki psixologik, ham tashqi muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boriladi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy-motor harakatlar mujassam bo'ladi.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o'quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so'ngra kasbga yo'llash kerak.

Kasbga yo'naltirish — bu ilmiy asoslangan va o'zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek o'z qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olib, turg'un kasb tanlash uchun hayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixologik-pedagogik, tibbiy va davlat tadbirlari tizimidir. Bu tadbirlar jamiyat va shaxs manfaatlarini umumlashtiradi.

Yoshlarni kasbga yo'naltirishda faoliyat masalasi muhim masala hisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo'nalishda harakat qilishga undaydigan ehtiyojlar shaxs faolligi manbai bo'lib hisoblanadi. Ehtiyoj — jonli mavjudotning hayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatdir.

Kishining faolligi ehtiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Kishining ehtiyoji uni tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Demak, ehtiyojlarni

qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shaklini egallashning faol, muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayoni sifatida alohida ajralib turadi. Yoshlarning kasb tanlashi asosan o'rta maktabdan boshlanadi. Shunga ko'ra, o'qituvchilar jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi o'quvchilarni kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish kabi muhim vazifa turadi.

Bundan tashqari, psixologlar o'quvchilarning aql-idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari va mezonlarini ishlab chiqishlari, shuningdek bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishlari zarur. O'smirlar va ilk o'spirinlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo'lganligi sababli bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko'p hollarda kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat'iy bir qarorga keladilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda kasb-hunarga nisbatan qiziqishni shakllantirish murakkab psixologik jarayon bo'lib, u individual yondashuvni talab etadi. Kuzatish, suhbat, test va amaliy faoliyatlar orqali o'quvchilarning qobiliyat va qiziqishlarini aniqlash mumkin. Oila, maktab va psixolog hamkorligi kasbiy yo'naltirishning samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning to'g'ri kasb tanlashiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Карандашев В.Н. Психология введение в профессию. 2-е изд - М.: Смысл, 2003. - 19 с.
2. Nabijonova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002. - 38 b
3. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 97 b
4. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi - Toshkent: Noshir, 2010.
5. Ziyo.net